

Janubiy Koreyaning O‘quv Jarayonidagi “Kompetensiya” Atamasining Mohiyati Va O‘quv Dasturida Foydalanilishi

Kamarova Maftuna Umar qizi¹

Annotatsiya: Ushbu maqolada Janubiy Koreyaning ta’lim sohasidagi “kompetensiya” atamasining ayni mamlakat ta’lim tizimidagi asl mohiyati va mazmuni, atamaning avval qo‘llanilgan variantlari va ulardan farqli jihatlari, 2015-yilda qayta tahrirlangan O‘quv dasturida aks ettirilganligi haqida bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: kompetensiya, O‘quv dasturi, asosiy kompetensiyalar, qobiliyat, aql, ko‘nikma, funksiya, amaliy bilim.

O‘quv dasturi (curriculum)–ta’lim tizimidagi har bir o‘quv fanining mazmuni va o‘tilish tartibini, o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan bilim hamda ko‘nikmalar hajmini belgilab beradigan rasmiy pedagogik hujjat², ya’ni ta’lim muassasalarida nimani o‘qitish va qanday o‘qitish belgilab qo‘yilgan rejadir. O‘zbekistonda O‘quv dasturi tegishli vazirliklar qoshidagi ilmiy metodik kengashlar tomonidan tasdiqlanadi. O‘quv fanining maqsad va vazifalarini belgilab berish O‘quv dasturining muhim vazifasidir. Chunki ayni shu jihat yaratiladigan o‘quv darsligi muallifiga muayyan nuqtai nazarni tanlash, o‘qituvchiga esa pedagogik mo‘ljalni to‘g‘ri belgilash imkonini beradi. O‘quv dasturi tomonidan belgilangan ta’limning mazmuni darslik, o‘quv qo‘llanmalari, ko‘rgazmali qurol va metodik tavsiyalarda to‘la namoyon bo‘ladi.³

Xuddi O‘zbekistonda bo‘lgani kabi Janubiy Koreyada ham O‘quv dasturi tegishli vazirliklar qoshidagi ilmiy metodik kengashlar tomonidan belgilab beriladi va shu asosda har bir viloyat, Shahar va tuman ta’lim bo‘limlari o‘quv rejasini tashkil etish va ishlash bo‘yicha yo‘riqnomalarni tayyorlaydi, ta’lim muassasalari esa davlat va mahalliy ta’lim idoralari tomonidan tayyorlangan o‘quv dasturi asosida ayni ta’lim muassasida foydalaniladigan o‘quv rejasini tayyorlaydi. O‘quv rejasi sifatli, kerakli va mazmunli ta’limni ta’minlash maqsadida tez-tez qayta ko‘rib chiqiladi, uni qayta ko‘rib chiqishda ta’limning mohiyati va qiymatini saqlab qolgan holda takomillashtirish eng muhim omil bo‘lib hisoblanadi. Janubiy Koreyada “역량⁴ - kompetensiya” atamasi 2000-yillarning boshidagi ta’lim haqidagi munozaralar fonida paydo bo‘lib, vaqt o‘tishi bilan doimiy ravishda ishlatila boshlandi⁵. 2009-yilga kelib esa O‘quv dasturini yaratishda alohida e’tiborga olindi va nihoyat, 2015-yilgi yangi tahrirdagi O‘quv dasturiga aniq qilib kiritilib qo‘yildi⁶. Mamlakat ichkarisida va tashqarisida olib borilgan ko‘plab tadqiqotlarda kelajakdagi ta’limda kompetensiyaga alohida e’tibor qaratish lozimligi haqidagi fikrlar inobatga olinib, O‘quv dasturining umumiy nazariyasida aniq ifodalab qo‘yildi. So‘ngra, har bir fan yuzasidan umumiy nazariya bo‘yicha tayyorlanadigan tayanch kompetensiyalar, ya’ni fan kompetensiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan maxsus kompetensiyani tayyorlash, ularni fanning o‘quv dasturida ko‘rsatish va bu borada fanning malakasini yaxshi rivojlantirish maqsadida reja tuzish tavsiya etildi.

¹ Samarqand davlat chet tillar instituti Koreys filologiyasi kafedrasida assistent o‘qituvchisi, tayanch doktorant

² <https://uz.wikipedia.org/>

³ <https://uz.wikipedia.org/>

⁴ <https://terms.naver.com/entry.naver?docId=2178478&cid=51072&categoryId=51072>

⁵ Kim Ji Hyon (2010), ‘대학 역량기반 교육 혁신’ 답론의 교육학적 조건, 교육원리연구15, 한국교육원리학회, 87-bet.

⁶ Pak Chang On, Kim Yu Ra (2016), 015 개정 교육과정의 쟁점과 교육철학의 과제: 핵심역량과 교육목적을 중심으로, 교육철학 59, 한국교육철학회, 12-bet.



Janubiy Koreyadagi o'quv dasturida kompetensiyalar qanday o'rin egallashini o'rganib chiqib quyidagilar aniqlandi:

1. Qayta tahrir qilingan 2015-yilgi o'quv dasturi OECD(Organization for Economic Cooperation and Development/Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti) tomonidan tanlab olingan asosiy kompetensiyalarni ma'lum bir o'qish yoki ishga yo'naltirilgan kognitiv bilim yoki malakalarni emas, balki hayot davomida zarur bo'lgan ko'nikma, munosabat va qadriyatlarni o'z ichiga olgan umumiy kompetensiyalar sifatida ko'radi va "ta'lim oluvchilarning muvaffaqiyatli bo'lishiga yordam berish" maqsadini qo'yadi. Bu esa, muvaffaqiyatli hayot kechirish uchun zarur bo'lgan asosiy qobiliyat bo'lib, bilim, ko'nikma, munosabat va qadriyatlarining yaxlit ishlashi orqali namoyon bo'ladigan qobiliyat sifatida belgilanadi.⁷
2. Han He Jong va boshqalar (2017) 2015-yilda qayta tahrir qilingan O'quv dasturiga kiritilgan kompetensiyalarni har tomonlama rivojlantirish uchun o'quv dasturini qanday ishlab chiqishni o'rganib chiqishgan. Mazkur tadqiqotda ular kompetensiya ta'limi bilan bog'liq bo'lgan oldingi turli tadqiqotlarni ko'rib chiqib, Janubiy Koreya ta'lim tizimida "kompetensiya" atamasining bungacha qo'llanilgan "intellekt", "ko'nikma", "funksiya" va "amaliy bilim" kabi atamalardan qanday farq qilishi haqida aniq xulosalar berishgan.⁸ Ularni quyidagi jadvalda keltirib o'tdik.

Kompetensiya (역량)	<ul style="list-style-type: none"> ➤ Muayyan kontekstda yuzaga keladigan turli va murakkab talablarni muvaffaqiyatli qondira olish qobiliyati; ➤ • Hodisalarni tushunish va tushuntirish, muayyan muammolarni hal qilishda ishonchli resurslardan foydalanish qobiliyati
Kompetentsiyaning xususiyatlari	<ol style="list-style-type: none"> 1. Yaxlit qobiliyat (umumiylik)- bu nafaqat insonda kuzatiladigan qobiliyatli tomonlarni, balki motivatsiya va munosabat kabi chuqur shaxsiy xususiyatlarni ham o'z ichiga oladi; 2. O'z bilim yoki ko'nikmalaridan faol foydalangan holda chet tili materialini tarjima qilish va ta'lim jarayonida aks ettirish qobiliyati (bajarish va aks ettirish qobiliyati); 3. 3) Kompetentsiya - bu turg'un qobiliyat emas, balki real kontekstga doimiy tarzda moslashib borish qobiliyatidir (kontekstuallik)
Asosiy kompetensiyalar	<ul style="list-style-type: none"> ➤ Kompetentsiyalar orasida barcha insonlar uchun zarur bo'lgan, turli hayotiy ehtiyojlarni qondirishga va jamiyatning har tomonlama yetuk bo'lishiga va muvaffaqiyatiga hissa qo'shishga qodir bo'lgan bir nechta kompetensiyalar mavjud.
	<ul style="list-style-type: none"> ➤ Aql-idrok (intellekt) - bu biror bir imtihon ko'rinishida o'lchanadigan qobiliyatdir. Kompetensiya esa, real hayotning aniq talablari oldida real hodisa sharoitida namoyon bo'ladigan qobiliyatdir. ➤ Ko'nikmalar- avtomatlashtirilgan va protsessuallashtirilgan qobiliyatlarni anglatadi, kompetensiyalar esa aniq talablarni muvaffaqiyatli

⁷ Ta'lim vazirligi, 2016a

⁸ Han He Jong va boshqalar, "Kompetentsiyaning ma'nosi va xususiyatlari" (2017: 30)



<p>Qobiliyat, aql, ko‘nikma, funksiya va amaliy bilim o‘rtasidagi farqlar</p>	<p>bajarish uchun zarur bo‘lgan barcha kognitiv va affektiv elementlarni qamrab olish qobiliyatini anglatadi.</p> <ul style="list-style-type: none"> ➤ Vazifalar kompetensiyalarga o‘xshamaydi, chunki ular kompetensiyalarning bir qismidir. ➤ Kompetensiya bu - qobiliyatlar orasidan aynan, “muvaffaqiyatli” bajarish qobiliyatini anglatadi. ➤ Kompetensiya amaliy bilimga o‘xshash, chunki u muammoni hal qilish amaliy qobiliyatini bildiradi, ammo amaliy bilim nazariy bilimga qarama-qarshi bo‘lgan tushunchadir, kompetensiya esa nazariy bilim va amaliy bilimga qarama-qarshi bo‘lgan tushunchadir, ya’ni ular ifodalarni integratsiyalashga qaratilgan.
---	---

Yuqoridagi ma’lumotlarga tayangan holda xulosa qiladigan bo‘lsak, Janubiy Koreyada “kompetensiya”ning “aql”, “ko‘nikma”, “mahorat”, “funksiya” va “amaliy bilim” kabi so‘zlardan farq qilishini aniqlashtirishga hamda turli sohalarda qo‘llanilayotgan “kompetensiya” atamasini yangi tahrirdagi O‘quv dasturida yangicha ma’noda qanday qo‘llashga qaratilgan muntazam sa’y-harakatlar olib borilgan. “Kompetensiya” so‘zi dastlab “biror bir vazifani bajarish uchun zarur bo‘lgan kompetensiya” ma’nosida ishlatila boshlangan bo‘lsa, kundalik hayotga kirib borishi bilan “zamonaviy jamiyatda yashovchi shaxslar uchun zarur bo‘lgan kompetensiya” ma’nosini anglatdi, O‘quv dasturiga kimgach esa “bilim, malaka va munosabat jamlanmasi”ni bildiruvchi atama sifatida doirasi kengaydi, degan xulosaga kelish mumkin.⁹ Janubiy Koreyada “kompetensiya” atamasi ayniqsa, O‘quv dasturiga kiritilishi bilan undan foydalanish keskin va muqarrar ravishda kengaygan. Bunga asosiy sabab esa professor-o‘qituvchilar tomonidan kompetensiya hech qachon ta’lim mohiyatiga putur yetkazmasligini ta’kidlash uchun qilingan sa’y-harakatlardir deyish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Kamarova M.U. “Koreys tilining xorijiy til sifatidagi ta’lim siyosati va koreys tilining tarqalishiga sababchi omillar”, So‘z san’ati xalqaro jurnali, 2-son, 2023.
2. Kamarova, M. (2022). 우즈베크어와 한국어 파생법 관련 논문 사례 연구 CASE STUDIES OF UZBEK AND KOREAN DERIVATION PAPERS. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 24), 258-263.
3. Kim Ji Hyon(2010), “대학 역량기반 교육 혁신” 담론의 교육학적 조건, *교육원리연구*15, 한국교육원리학회, 87-96.
4. Hwang Kyu Ho (2017), “일반역량 교육 논의의 쟁점 분석”, *교육과정연구*, 한국교육과정학회, 247-272.
5. Pak Chang On, Kim Yu Ra(2016), “개정 교육과정의 쟁점과 교육철학의 과제: 핵심역량과 교육목적을 중심으로”, *교육철학* 59, 한국교육철학회, 1-12.
6. Song Je Ik, “역량 기반 교육과정 다시 돌아보기”, *한국어문교육* 제36호, (<https://doi.org/10.24008/klle.2021..36.001>.)
7. <https://uz.wikipedia.org/>
8. <https://terms.naver.com/>

⁹ Cho Je Yun: “Kompetensiya- an’anaviy ta’lim jarayonida nafaqat umumiy, konseptual va akademik bilim (bilishni o‘rganish), balki operatsion va protsessual bilimlar (bajarishni o‘rganish), kognitiv nou-xau va ko‘nikmalar, shaxslararo bilimlar (birgalikda yashashni o‘rganish yoki ijtimoiy ko‘nikmalar), qadriyatlar va munosabatlar (mavjudlikni o‘rganish), tajriba, shaxsiy xususiyatlar, jismoniy qobiliyatlar hamda madaniyatlarni qamrab oluvchi turli elementlardan iboratdir”.



9. Kamarova, M. (2022). KOREYS VA O'ZBEK TILLARIDA SO'Z YASOVCHI QO'SHIMCHALAR ORQALI SO'Z YASALISHI QIYOSIY TADQIQOTIDAN TA'LIMDA FOYDALANISH. *Ученый XXI века*, (7 (88)), 34-41.
10. Базарова, Ш. Ш. (2022). KOREYS ADIBASI SHIN KYON SUK IJODINING O'ZIGA XOSLIGI XUSUSIDA. *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, 5(3).

